**_PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI_** **_№ 4,Fevral, 2025_**
**_ISSN: 3060-4923, Impact Factor – 7,212_** **_worldly knowledge_**
**_Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire._**
**_https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG_**
**_https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge_**
**_https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923_**

# ONA TILIDA SINTAKTIK TAHLIL

**_Xaqqulova Dilnoza Abduvasiyevna_**

_Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi_

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tilida sintaktik tahlilning mohiyati, uning grammatik tahlil jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Sintaktik tahlil gap tuzilishini aniqlash, gap bo'laklarini ajratish va ularning o'zaro munosabatlarini tahlil qilish orqali tilshunoslik tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada sintaktik tahlilning turli usullari, zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilishi va uni avtomatlashtirish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sintaktik tahlil, grammatik tahlil, gap tuzilishi, gap bo'laklari, ona tili, tilshunoslik.

**Аннотация:** В данной статье описывается сущность синтаксического анализа в родном языке, его роль и значение в процессе грамматического анализа. Синтаксический анализ важен в лингвистических исследованиях, поскольку определяет структуру предложения, разделяет части предложения и анализирует их взаимоотношения. Также в статье рассматриваются различные методы синтаксического анализа, их использование в современном языкознании и вопросы его автоматизации.

**Ключевые слова:** синтаксический анализ, грамматический анализ, структура предложения, фрагменты предложения, родной язык, лингвистика.

## Kirish

Tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lgan sintaksis so'z birikmalari va gaplarning tuzilishini, ularning semantik va grammatik munosabatlarini o'rganadi. Sintaktik tahlil esa ushbu tuzilishlarni chuqurroq o'rganish, ularning to'g'ri tuzilishini aniqlash va grammatik xatolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada sintaktik tahlilning nazariy asoslari, uning usullari va zamonaviy texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Gap nutq birligi sanaladi. Shunday bo'lgach, uning sintaktik tahlili nutq lingvistikasi qonun – qoidalari doirasida amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Nutq lingvistikasi qonun-qoidalari esa endigina ilmiy asoslana boshladi. Ana shu bois ular orqali sintaktik tahlilda o'z aksini topishi lozim bo'lgan gapning struktur butunligini tashkil etayotgan bevosita ishtirokchi elementlarning tildan nutqqa ko'chirilishi va bu jarayonda ularning qay tarzda sintaktik faollik olishi, sintagmatik zanjirning voqelanishidagi ulushi masalalarini izohlab bo'lmaydi.

Gap bo'laklari nazariyasiga asoslanuvchi an'anaviy sintaktik tahlilning zaif tomonlari haqida ba'zi tilshunoslar o'z fikr va mulohazalarini bildirishgan bo'lishiga qaramay, bu sohada hali keskin o'zgarishlar sodir etilganicha yo'q. Rus tilshunosi Z.D.Popova mazkur masala bobida quyidagilarni yozadi: «Традиционное учение о членах предложения содержало в себе такие противоречия, которые постоянно побуждали синтаксистов к его пересмотру»[1].

Z.D. Popova gap bo'laklari tushunchasiga yangicha yondashib, ularning gapda bajaradigan vazifalarini birmuncha mukammalroq va aniqroq izohlashga harakat qiladi. Olima G.A.Zolotova

[1] Попова З.Д. Может ли обойтись синтаксис без учения о членах предложения // Вопросы языкознания, № 5, 1984. – С. 69.

qo'llagan "sub'yektiv" va "predikativ" terminlaridan foydalanib, gap bo'laklarini ularning vazifalariga ko'ra quyidagicha tasnif etadi:
1. Gapning struktur sxemasiga kiruvchi gap bo'laklari. Bunga subyektivlar (ega, dativ subyektiv, genitiv subyektiv, instrumentativ subyekt va h.k.lar); predikativlar (kesim, predikativ ravish, infinitiv va h.k.) kiradi.
2. Gapning struktur sxemasiga kirmaydigan gap bo'laklari. Bu bo'laklar, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi: 1. Gapning pozision sxemasiga kiruvchi ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, hol). 2. Gapning pozision sxemasiga kirmaydigan ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi)[2].
Tilshunoslarning gapning ikkinchi darajali bo'laklari haqida ham bildirishayotgan salbiy mulohazalarini kuzatamiz. Bu xususda gapirganda akademik V. V. Vinogradov gapning ikkinchi darajali bo'laklari masalasini tubdan qayta ko'rib chiqish kerakligini, ular grammatik tamoyillarga izchil asoslanmaganligi tufayli gap strukturasida sodir bo'ladigan jonli sintaktik aloqalarni mutlaqo sun'iy ifodalashini alohida ta'kidlagan edi[3].
Bunday fikr Ya. I. Rosloves tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. Uning «Вопросы языкознания» jurnalida e'lon qilingan maqolasida quyidagilarni o'qiymiz: «Традиционное учение о второстепенных членах предложения… переживает своеобразный и противоречивый кризис»[4]. Olim masalaning bunday holatga kelib qolishining asosiy sababi mantiqiy va sintaktik kategoriyalarning, gap va hukmning, gap bo'laklari va mantiqiy hukm bo'laklarining bir-biridan keskin farqlanmayotganligida deb biladi.
Tilshunoslik adabiyotlarida gap bo'laklari va ularning talabga javob bera olmayotgani haqida aytilgan fikr va mulohazalar anchagina bo'lishiga qaramay, hozirgacha bu xususda sof lingvistik qonun-qoidalarga izchil asoslanuvchi biror bir konkret taklif kun tartibiga qo'yilgani yo'q. Bizningcha, buning amalga oshishi nutq lingvistikasining to'liq ilmiy asoslanishi bilan bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganda, gap nutq birligidir va shu bois uning sintaktik tahlili muammolarini ham nutqdan ayri holda hal etish mushkuldir.

## Xulosa

Sintaktik tahlil ona tilini chuqur o'rganish va tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat tilshunoslar, balki til o'rganayotgan shaxslar, o'qituvchilar hamda kompyuter lingvistikasi sohasidagi mutaxassislar uchun ham dolzarb mavzudir. Sintaktik tahlilning avtomatlashtirilishi esa tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlarida samaradorlikni oshirib, tilshunoslik tadqiqotlariga yangi istiqbollar ochadi.

## Adabiyotlar:

1. Абдуллахонов Ж. Борса келмас. – Тошкент, 1978. -310 б. – ЖАБ.
2. Асад Дилмурод. Кўчки (қисса ва ҳикоялар). – Тошкент, 1991. – 396 б. – АДК.
3. Асқад Мухтор. Кумуш тола // Шарқ юлдузи – Тошкент, - № 11. 1987. – Б. 13-66. – АМК.
4. Зверева Е.Н., Эбер И.Г. Brush Up Your Grammar.(Сборник коротких рассказов и диалогов на анг-м языке). – Л., 1965. – 122 с. – BUG.

[2] Попова З.Д. Может ли обойтись синтаксис без учения о членах предложения // Вопросы языкознания, № 5, 1984. – С. 72.
[3] Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М.: Наука, 1975. – С. 282.
[4] Рословец Я.И. О второстепенных членах предложения и их синтаксических функциях // Вопросы языкознания. № 3, 1976. – С. 74.

5. Xaqqulova, D. (2024). ABDURAHMON GO ‘ZAL–YASSAVIYSHUNOS. *PEDAGOG*, *7*(6), 8-15.
6. Xaqqulova, D. (2024). ADABIYOTSHUNOS OLIM ABDURAHMON GO ‘ZALNING TADQIQOTLARI XUSUSIDA. *PEDAGOG*, *7*(5), 548-555.
7. XAQQULOVA, D. (2023). BADIIYLIK MASALALARI TADQIQIDA OLIM MAHORATI. *Наука и технология в современном мире*, *2*(5), 5-11.
8. Abduvasiyevna, X. D. (2024). SO ‘Z TUZILISHI VA SO ‘Z YASASH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *1*(2), 261-266.
9. Abduvasiyevna, X. D. (2024). NUTQ MADANIYATI VA OG ‘ZAKI MULOQOT. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *1*(2), 255-260.
10. Abduvasiyevna, X. D. (2024). MATN TAHLILI VA MAZMUNNI TUSHUNISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *1*(2), 279-284.
11. Abduvasiyevna, X. D. (2024). GAP TUZILISHI VA UNING TURLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *1*(2), 267-272.
12. Abduvasiyevna, X. D. (2024). ONA TILIDA IMLO QOIDALARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *1*(2), 273-278.
13. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 26-31.
14. Ikromova, S. A. (2024). INTELLEKT VA IQBOL: KOGNITIV PSIXOLOGIYA. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 99-104.
15. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВНЫЕ ОБЩИЕ ПОНЯТИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИИ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 20-25.
16. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КРИЗИСЫ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 29-35.
17. Икромова, С. А. (2024). ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ И ПАМЯТЬ ЧЕЛОВЕКА. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 59-65.
18. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK SALOMATLIK VA UNING JAMIYATDAGI ROLI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 93-98.
19. Икромова, С. А. (2024). КОНСУЛЬТИРОВАНИЕ И ТЕРАПИЯ ЛЮДЕЙ В СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 8-14.
20. Икромова, С. А. (2024). ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ПСИХОЛОГА. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 63-68.
21. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 46-52.